



O'ZBEK ADABIY TILI HAQIDA

Baxshulloyeva Rushana Ravshan qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589151>

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zbek adabiy tilining jamiyat hayotidagi beqiyos o'rni, tillar oilalari o'rtasidagi tafovutlar, til ijtimoiy hayotning ma'lum bir bo'lagi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: og'zaki va yozma ko'rinishlari, shevalar, muloqot vositasi, qadimgi turkiy adabiy tili, lotin tili, adabiy til mezonlari.

Ulug' bobokalonimiz aytganlaridek: "Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shaklidir. Hatto ayrim bir xalqlarda ham adabiy til turli davrlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Qadimgi Turkiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili. Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili Adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili, ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa adabiy til bo'lgan. Adabiy tilning ikki-og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud. Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda Adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Badiiy asarlar ham Adabiy til me'yorlariga bo'ysunsada, ular ko'plab xususiylik hamda umum e'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Adabiy til bilan Milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday Adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda (masalan, Italiya, Indoneziya va boshqalar) shevalar Adabiy til bilan teng suratlarda qo'llanilmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ilk davr o'zbek adabiy tili tarixida ikki xil tipli til mavjud deb hisoblasak, o'sha davrda yaratilgan yozma yodgorliklarni ko'zdan kechirib, shunday xulosa qilish mumkinki, bular kitobiy adabiy til va xalq adabiy tili mavjud. Kitobiy adabiy tilda arabcha, forscha va qadimgi turkiy



shakllar ustunlik qilgan. Shuning uchun ham undagi ko'pchilik so'z va shakllar bizga unchalik tushunarli emas. Xalq adabiy tilida esa o'sha davr xalq tiliga xos shakl va so'zlarni uchratishimiz mumkin. Hatto, bu fikrlarni M. Qoshg'ariy ham tasdiqlagan. U XI asr yozuvlari va tili haqida gapirar ekan, kitobiy tilda yozilgan asarlarni o'qiy olmasligini ko'rsatadi. O'zbek xalqi va uning tili turkiy xalqlar oilasiga va tiliga mansub bo'lib, uning shakllanishi turkiy xalqlar va tillarining shakllanish tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Haqiqatdan ham, akademik B.A. Axmedov aytganidek, "O'zbek xalqi O'rta Osiyoning qadimiyligi xalqlaridan biri bo'lib, deyarli 3000 yillik tarixga ega". Badiiy, publistsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop hujjatlar hamda ish yuritish qog'ozlari tilning shakllanish taraqqiyoti jarayonlarini, adabiy tilning tarixiy taraqqiyotini, har bir uslub uchun xos bo'lgan leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik vositalarning shakllanishini o'rganish o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishning asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zbek adabiy tili butun turkiy tillarda bo'lgani kabi, asosan uch tovushli bo'ladi: bil, dil, kel, ket, qol, ko'z kabilar. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ot, ov, oy kabi bir bo'g'inli; ikki, olti, yetti, o'qi kabi ko'p bo'g'inli so'zlar kamdir.

O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilish (1989) O'zbek adabiy tilining rivojini ta'minlovchi muhim voqeа bo'ldi. O'zbek Adabiy tili turli xalqlar Adabiy tili rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ushbu til Yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir. Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e'tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg'urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Til odamning shunchaki gapirish yoki yozish emas, til-insonning madaniyati, ziynati, o'z aksi, ya'ni, oynasidir. Inson olgan jami tarbiyalarning hosilasidir. Nega endi bizning shunday milliy, adabiy tilimiz bo'la turib biz hozirda ko'pincha: muzlatkichni "holodelnik", chang yutkichni "plisos", achitqichni "kislota" kabi chet tilida yuritilgani kabi o'zlashtirib o'z madaniy tilimizni unutib qo'yamiz? Aksincha, adabiy tilni buzishga nisbatan jinoiy modda qo'yilmagan, chunki bunga jazo millatning javobgar a'zosi sifatida har bir odamning o'zi milliy tilni qadrlashi, uni



boshqa tillar bilan aralashtirib, buzishdan zavqlanmasligi yuzasidan o'z o'zini targ'ib qilishi kerak. Hozirgi adabiy tilimiz ne-ne asrlar davomida qancha minglab ijodkorlarning mashaqqatli ijod mahsuli ekanligini bir o'ylab ko'raylik. Bugungi kunda biz nima qilyabmiz? Mustaqillik istadik, tilimizni mustaqil davlat tili qilish uchun kurashdik, shu maqomga ham ko'tarib oldik hamda endi o'zimizniki, nima qilsak ixtiyorimiz deb, uni ham o'z ixtiyoriga tashlab qo'ydik. Endi erkinlik bo'ldi deb tilimizning ming yillardan beri shakllangan qoida-tartiblaridan ham o'zimizni erkin qilib oldik. Demokratiya zamoni deb, uni o'gaylab va hatto o'z holiga hamda o'zga tillar qo'liga tashlab qo'yanmiz. Chet tillar esa muloyim bosqinchidir. U bizning tilimizga vayronkorona kirib kelmoqda. Hozirda sof o'zbek tilimizni qanchalar sevamiz? Ayrim yoshlari so'zlashuv jarayonida bir necha tilni qo'shib gapirishni odad tusiga aylantirishgan. Hayron qolasan kishi, balki ular bu holni zamonaviylik bilan izohlar? Ammo muammoning og'riqli nuqtasi shuki, bu holatni ko'rib, tilga hurmatsizlikning oliy namunasini anglaymiz. Lekin aksincha, biz tilimiz bilan faxrlanishimizga haqlimiz. Ona tilimiz shunchalar boyki, qaddi ham, qadri ham tog'lar kabi sarbaland.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tilga e'tibor, uning mavqeyini qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yish mustaqillikka erishishning dastlabki qadamlaridandir desak mubolag'a bo'lmaydi. Vatan, xalq kelajagi, o'zlikni anglash, o'z ona tilining sofligini ta'minlash yo'lida fidokor bo'lmaslik mumkin emas. Bu har bir inson umrining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. O'zbek tilining shakllanishi uning ijodkori o'zbek xalqi tarixi bilan bevosita bog'langan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" kitobidan: "Odobning boshi tildir"

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибida лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>



This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпуз лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммомлари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in todays market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурӯҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.



basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'y sunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali olib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.



The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* /ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.